International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

HOZIRGI SHE'RIYATDA FOLKLOR JANRLARIGA MUNOSABAT

Firuza Buriyeva
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand

Annotatasiya

Mazkur maqolada folklor asarlarining yozma adabiyotdagi she'riy janrlar takomili, transformatsiyasi va paydo bo'lishidagi o'rni; yozma adabiyotdagi janr qaydi adabiy alla, adabiy yor-yor, adabiy latifa, sifatida ko'rsatilib kelayotgan janrlar tizimining yuzaga keltirganiligi; yozma epik she'riyat namunalari: doston, she'riy rivoyat, afsona va ertaklar tarkibidagi folklorning lirik janrlaridan olingan intermatnlar poetikasi masalalariga to'xtalinadi. Tadqiqotdagi ilmiy-nazariy fikrlar hozirgi o'zbek she'riyatining ko'zga ko'ringan vakili Xurshid Davron asarlari tahlil va talqinlari asosida dalillanadi.

Kalit so'zlar: folklor, yozma adabiyot, janrlar modifikatsiyasi, mifologik tafakkur, individual ijod, alla, yor-yor, latifa, rivoyat, afsona, adabiy an'ana.

Adabiyotshunoslikka doir keyingi yillardagi tadqiqotchilikda folklorning yozma adabiyotga ta'siri, uning rivojlanishidagi o'rni masalasi, uning zamonaviy janrlar modifikatsiyasidagi ahamiyati, shuningdek, modern uslubidagi asarlarida mifologik tafakkurning aks erishi, folklor namunalari va individual ijod badiiyatining uyg'unligi masalalariga alohida diqqat qaratilayotir. Jumladan, bu borada yirik tadqiqot ishlarini amalga oshirgan adabiyotshunos olima L.Sharipova folklorning XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyati badiiy taraqqiyotidagi roli masalasiga diqqat qaratar ekan, folklorizmning badiiy ijodga daxldor deyarli barcha masalalar bilan chambarchas bog'liq va dolzarb ahamiyatga ega ekanligini aniq ko'rsatadi:" Folklor va yozma adabiyot munosabatlari adabiyotning turli davrlarida turlicha namoyon bo'lishi, har bir tur va janr doirasida o'ziga xoslik kasb etishi, ijodkor mahoratini namoyon etishi, ijodkor uslubining bir qirrasiga, asar badiiyatiga ta'sir qiluvchi omilga aylanishi, ayrim badiiy san'atlarni yuzaga keltirishiga ko'ra alohida-alohida, ayni damda, tizimli tarzda tadqiq qilinishi lozim".[7.7]

Jumladan, folklor asarlarining she'riy janrlar takomili, transformatsiyasi va paydo bo'lishidagi o'rni keng qamrovli bo'lib, alohida tadqiqot mavzularidan hisoblanadi. Hatto adabiyotshunoslikda janr qaydi adabiy alla, adabiy yor-yor, adabiy latifa sifatida ko'rsatilib kelayotgan janrlar tizimi

yuzaga keldi.[8] Ya'ni xalqning maishiy turmushi, quvonchli kunlarida o'tkaziladigan marosimlar bilan aloqadorlikda yashab kelayotgan ushbu janrlarning individual ijodkorlar tomonidan yaratishlari ham bir adabiy an'ana sifatida shakllanib bo'ldi. Jumladan, "alla" qo'shjiqlarining zamonaviy she'riyatdagi namunalari Elbek, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, S. Zunnunova, Raim Farhodiy, G,Jo'rayeva, S.Salimov, Omon Matjon, Usmon Azim[7.75-85], Xurshid Davron ijodlari orqali namoyon bo'lib kelmoqda. Ammo individual shoirlar ijodidagi alla namunalarini ko'pincha o'zlarining ma'lum sujetlarga asoslangan nisbatan yirikroq hajmli asarlari tarkibida biror bir his-tuyg'u kechinma, xotira, oy-xayol, ruhiy holatning tasvirini jonlantirish uchun keltirishlari ko'proq ko'zga tashlanadi. Bunda shoir "alla" qo'shig'iga, asosan, qaysidir personaj yoki o'zining xotira, armon, quvonch, shukronalik kabi ruhiy kechinmalari tasviri uchun murojaat etadi.

Masalan, Xurshid Davronning "Tun, beva ayol va derazadagi soyalar haqida doston"[1.53] deb nomlagan dostonida armon va iztirob kechinmalarini aks ettirish uchun asarda beva ayolning tushida tug'ilmagan bolasiga alla aytganligi epizodi keltirilgan:

Sen mening bodom gulim,

Alla-yo alla, bolam

Sen mening olma gulim,

Alla-yo alla, bolam.

Sendan kelar gullar isi,

Alla-yo alla, bolam.

Onasining qora ko'zi,

Alla-yo alla, bolam…

She'rning dastlabki misralaridanoq ko'rinadiki, u to'lasincha shoirning ijod mahsuli emas: unga xalq qo'shiqlarida hech o'zgarishsiz kiritilgan satrlar bor; mullif ushbu xalqona lirik parchani intermatn sifatida kiritib, lirik qahramon xarakteri va she'rning pafosini yuzaga keltirgan. Natijada esa ijodkor poetik maqsadi to'la o'talgan bo'lib, ushbu alla orqali shoir xalq og'zaki poetik ijodidagi adabiy an'analarning xalqning urf-odatlari, qadriyatlari bilan bog'liqlikda namoyon bo'lishini asarga ustalik bilan singdiradi. Buning izohi shuki, marosim folklori tarkibida "motam yor-yorlar" deb qayd etilgan qo'shiq turi bo'lib, odatda ular biror bir yigit yoki qizning turmush qurmasdan, bevaqt vafot etganida aytilgan. Ularda odatiy yor-yordagi baxtiyorlik, kelajakka umidvorlik, quvonch tuyg'ulari o'rnida yo'qotishning achchiq alami, dunyoning bevafoligi, taqdirning beshafqatligi haqidagi nolalar aks etgan. Shu bois bunday yor-yorlar ohangiga ko'ra an'anaviy yor-yor qo'shiqlari monand bo'lsa-da, mazmuni, ifoda tarzi, pafosiga ko'ra ulardan tubdan farqlangan.

Garchi folklorshunoslikda alla qo'shiqlari tasnifida orasida aza uchun aytiladigan turlari ko'rsatilmasa-da, yozma adabiyotda oz bo'lsa-da "motam allalari" uchraydi, buning bir misolini yuqorida Xurshid Davron ijodi misolida ko'rib o'tdik. Shoir dostonidagi ushbu alla befarzand beva ayolning qayg'u-iztirobini, armonini, shuningdek, urushning odamlar taqdiridagi mash'um asoratlarini namoyon etishdek poetik maqsadlariga asosan "motam allasi" bo'lib yuzaga kelganki, bu esa she'rning yakuniy misralarida ayon bo'ladi:

Mening yashil tol chovkanim,

Alla-yo alla, bolam.

Tushimda topib olganim,

Alla-yo alla, bolam.

Hozirgi zamon shoirlarining folklor asarlariga munosabatlarida ma'lum darajada umumiylikni ko'rish mumkin. Ya'ni ular xalq og'zaki ijodidagi ko'pchilikka tanish sujetlar, obrazlar, motivlar

orqali yangi poetik maqsadlarini amalga oshirganlar. Xususan, Xurshid Davron ijodida folklor asarlari an'analari asosan didaktik qarashlarni ifoda etish uchun xizmat qiladi. Shoirning turli to'plamlaridan o'rin olgan "Qadimgi qo'shiq", "Nomoz haqida qo'shiq", "Namozning qilichi haqida ertak", "Ertakning davomi", "Shoir haqida rivoyat", "Jangchi haqida rivoyat"[1]; "Yoz ertagi", "Qiz va shamol haqida ertak", "Orzu haqida rivoyat", "Vatan haqida yetti rivoyat"(turkum)[2]; "Jangchi haqida rivoyat", "Yor sochi haqida rivoyat", "Shiroq haqida rivoyat", "Tumor haqida rivoyat", "Shoir haqida rivoyat"[3] kabi she'rlari avvalo vatanparvarlik, milliy ozodlik, shuningdek, xalqning o'tmish hayotidan olingan turli mavzulariga bag'ishlanganligi bilan e'tiborni tortadi. Umuman olganda, adabiyotshunos D.Nusratullayeva yozganidek: "Xurshid Davron istiqlolni, xalqini ozod ko'rishni xuddi ana shu an'anadan, ya'ni nomi, sha'ni, zukko va chapdastligi afsona hamda rivoyatlarga aylanib ketgan tarixiy shaxslar hayoti, ilmi ziyosi, kurashchanligi, mard-u jangovorligini madh etish bilan boshladi. Shu bois shoir o'tganlarni xotirlash bilan zamondoshlarini ajdodlariga munosib bo'lishga chaqiradi."[6.27]

Xurshid Davron individual uslubidagi rivoyaviylik va liro-epik tasvirlarning uyg'unligi, albatta, uning janrlarga munosabatida ham aks etadi. Zero, shoir ko'proq folklorning afsona, rivoyat, ertak kabi janrlarga murojaat qiladi. Tahlillardan shoir ijodida ham ertak so'zining ko'pincha janr ma'nosini emas, balki epik voqelik, orzu-istak, baxt, xayolot kabi bar qancha ma'nolarni ifodalab kelishi kuzatilsa-da, afsona va rivoyat ekanligiga nisbat berilgan she'rlardagi voqeabandlik, personajlarga egalik, o'tmish voqealariga bag'ishlanganlik kabi bir qancha belgilar muallif ularni janr sifatida qo'llaganini ko'rsatadi. Xususan, shoir qalamiga mansub tarixiy rivoyatlar asosidagi she'rlariga "Tarixiy rivoyatlar biror bir shaxs faoliyati yoki xalq qahramonlari bilan voqealarni aks ettirib, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etadi"[5.229], tarzidagi ta'rif to'la mos keladi. Shoirning bu kabi she'rlarida tarixiy real voqelarga hamda o'tmishdagi xalqning maishiy turmushi hamda orzu-armonlari, muahabbat, baxt, g'am-qayg'ulari aks etgan hayotiy uydurmalarga asoslangan sujetlar ko'zga tashlanadi. Chunonchi, shoirning turli to'plamlaridan o'rin olgan "Bibixonim"[2.36], "Vatan haqida yetti rivoyat"[2.180] turkumidagi "Bobolar mozori", "Bir parcha yer", "Vatan tuprog'i", "Lola gulli piyola", "Vatan mehri", "Tuz haqi", "Ota qabri" she'rlari; "Shiroq"[2.130], "Baqtriya malikasi Raxshona haqida afsona"[4.52], "Jangchi haqida rivoyat" kabi she'rlarning deyarli barchasida real yoki shoirning ma'rifiy-didaktik maqsadlari asosida yaratilgan sujetlarni ko'rishimiz mumkin.

Folklorshunoslikda afsona va rivoyatlarning o'ziga xos janriy belgilari haqida so'z yuritilganda, ba'zan ularda an'anaviylikning yo'q ekanligi aytiladi.[5.175] To'g'ri, afsona va rivoyatlarda ertak, lof lardagi kabi an'anaviy janriy belgilar u darajada ko'rinib turmasa-da, yillar davomida saqlanib qolgan barqoror belgilar: nasriy shakl, nisbatan qisqa sujetning xayoliy yoki xayotiy uydirmalarga asoslanishi va yetakchi obrazlarda ibrat bo'larli axloqiy sifatlarning jamuljamligi, mavzularning, asosan, mifologik, toponimik, tarixiy xarakterda bo'lishining o'ziyoq ularda ham an'anaviylikning mavjudligini bildiradi. Ammo har qanday folklor janrlari kabi afsona va rivoyatlarda ham sinkretiklik xususiyati ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda yozma adabiyot xalq og'zaki ijodidadan farqli qator xususiyatlarga ega bo'lsa-da, u bilan hamisha bir butunlikda rivojlanib kelgan. Bu ayniqsa janrlar sinkretikligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa epik she'riyatda: doston, she'riy afsona va rivoyatlarda xalq qo'shiqlarining ham ko'pgina xususiyatlari aks etadi yoki aksincha. Shoirlar ko'pincha poetiklikni oshirish maqsadida folklor janrlari xususiyatlarini qorishiq tarzda umumlashtirib qo'llayveradilar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Даврон Х. Болаликнинг овози. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 206 б.
2. Даврон Х. Баҳордан бир кун олдин. – Тошкент: Шарқ нашриёт матбаа концернининг бош таҳририяти, 1997. – 224 б.
3. Даврон Х. Тўмариснинг кўзлари . – Тошкент: Ёш гвардия нашриёти, 1987. – 73 б.

4. Даврон Х. Қақнус. – Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1987. – 206 б.
5. К.Имомов, Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, О.Сафаров. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Университет ва педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари учун дарслик. – Т., “Ўқитувчи” нашриёти. – Б.229.
6. Нусратиллоева Д. Хуршид Давроннинг индивидуал услуби ва поэтик маҳорати. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Самарқанд, 2022. – 142 б.
7. Шарипова Л. Шеърият ва фольклор. (XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърияти мисолида). Монография. – Бухоро, “Дурдона” нашриёти, 2019. – 196 бет.
8. Шарипова Л. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърияти бадиий тараққиётида фолклор. Филол. фан. док. ... дисс. –Т., 2019. – 261 бет.